

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT**  
**UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR**

**“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION**  
**G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI**  
**RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK**  
**KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**2-qism**

**“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE**  
**FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”**  
**SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ**  
**КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И**  
**ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»**

**URGANCH-2025**

## **TASHKILIY QO‘MITASI:**

### **RAIS:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,  
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

### **HAMRAISLAR:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik  
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti  
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi  
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch  
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

### **ILMIY KOTIB:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”  
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

## **TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari  
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod  
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”  
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”  
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

### **ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:**

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

4. Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va vermikulitning ishlab chiqarish sohasidagi o`rni/Sh.G'.Djavlonova B.A.Tursunov "Yangi O'zbekiston: ilm qaldirg'ochlari - 2025" IV xalqaro talabalar anjumani materiallari to'plami - Jizzax " 2025- yil 17-may 512-bet.
5. Теплоизоляционные штукатурка на основе вермикулита тебинбулакского месторождения/ А.П.Пурханатдинов, О.Д.Айтжанов, А.Алимов "Yangi O'zbekiston: ilm qaldirg'ochlari - 2025" IV xalqaro talabalar anjumani materiallari to'plami - Jizzax " 2024- yil 18-may 219-bet.
6. To Produce an Effective Composition of Vermiculite Plita and to Study the Coefficient of Thermal Conductivity/ Basic (PhD) B.A.Tursunov Professor X.A.Akramov Associate professor A.Ganiyev The Peerian Journal 2022, 29-37 pages.
7. 12865-67.Вермикулит вспученный, 2-3с.
8. Mahalliy vermikulit zaxiralarini qurilishda qollashning ilimy-amaliy asoslari/ N.Juginisova , A.Purxanatdinov "Yangi O'zbekiston: ilm qaldirg'ochlari - 2025" IV xalqaro talabalar anjumani materiallari to'plami - Jizzax " 2025- yil 17-may 494-bet.

## **QURILISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI**

Salayev Jasurbek Komilovich

Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

### **Annotatsiya**

Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillari iqtisodiy tahlil asosida o'rganilgan bo'lib tadqiqot asosida metodologik yondashuv qo'llanilib, ichki va tashqi omillar tizimli ravishda ajratib ko'rsatildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlar salohiyatini oshirish hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, investitsiya muhiti va marketing strategiyalarining samarali yo'lga qo'yilishi qurilish sanoati rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, ushbu

omillarning uyg'unligi nafaqat ichki bozor, balki xalqaro raqobatda ham ustunlikni ta'minlashi mumkin.

### **Kalit so'zlar**

Qurilish sanoati, raqobatbardoshlik, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, malakali kadrlar, davlat qo'llab-quvvatlashi, investitsiya, marketing.

### **Kirish**

Qurilish sanoati har qanday davlat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda globallashtirish sharoitida qurilish korxonalari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham raqobatga tayyor bo'lishi zarur. Raqobatbardoshlik – bu korxonaning mahsulot va xizmatlarini sifat, narx, innovatsion va samaradorlik bo'yicha bozor talablariga moslashtira olish qobiliyatidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi – qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda ichki va tashqi omillarni tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholashdir.

### **Metodologiya**

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi


iqtisodiy-statistik tahlil (so'nggi yillardagi qurilish sanoati ko'rsatkichlari o'rganildi);

|                                |                                       |
|--------------------------------|---------------------------------------|
| Ichki omillar                  | Tashqi omillar                        |
| Innovatsion texnologiyalar     | Davlat qo'llab-quvvatlashi            |
| Malakali ishchi kuchi          | Investitsiya muhitining yaxshilanishi |
| Xarajatlarni optimallashtirish | Bozor infratuzilmasining rivojlanishi |
| Sifat menejmenti               | Import va eksport imkoniyatlari       |
| Marketing va brend siyosati    | Raqobat muhiti (mahalliy va xalqaro)  |

solishtirma tahlil (ichki va tashqi omillar ajratildi);

- ekspert baholash (eng ta'sirchan omillar aniqlanib, ularning foizli ta'siri hisoblandi).

**Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshiruvchi omillar**



**1-rasm. Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillarning ta'sir kuchi (%).**

M.Porterning fikricha, tug'ma omillar ta'sirida va boshqa manbalar orqali erishilgan raqobatbardoshlikni farqlash muhim hisoblanadi. Korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi barcha omillarni Garvard biznes maktabi professori M.Porter bir necha turlarga bo'lishni taklif qiladi. Birinchidan, asosiy va ishlab chiqilgan omillardir va bular quyidagilardir, tabiiy resurslar, iqlim sharoiti, mamlakatning geografik joylashuvi, malakasiz va yarim malakali ishchi kuchi va shu kabilardir.

Qurilish korxonasi raqobatbardoshligi – bu qurilish korxonasining qurilish bozorida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, xarajatlarni kamaytirish va qurilgan uy-joy sifatini yaxshilash shartlarini belgilaydigan xususiyatlaridir.

Qurilish korxonasi raqobatbardoshligi qurilish mahsulotlarining quyidagi xususiyatlari asosida shakllanadi:

faol raqobat muhitidagi qurilishkorxonalari mahsulotlari realizatsiyasi ularning iste'mol xususiyatlariga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faolligiga va aholining to'lov qobiliyatiga yuqori darajada bog'liqligi;

iste'molchining o'zida mavjud bo'lgan mahsulot (xizmat)dan qoniqish qobiliyati tufayli "kechiktirilgan" iste'mol mahsulotiga aylanish qobiliyati;

uzoq muddatli foydalanishga e'tibor qaratish, bu esa, iste'molchining yangi mahsulot sotib olishdan ko'ra, mavjudini saqlab qolishga (ta'mirlash, modernizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish) qiziqishini ko'proq oshiradi;

qurilish korxonalari faoliyatining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liqligi;

ishlab chiqarish va tijorat siklining sezilarli davomiyligi tufayli vaqt omilining alohida ahamiyati;

qurilish sanoatining yakuniy mahsuloti narxining yuqoriligi sababli, iste'molchilar ko'lamining kamligi.

### **Muhokama**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish eng muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash va ularni rag'batlantirish ham korxonalarning bozordagi ustunligini mustahkamlaydi. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, kredit yengilliklari va huquqiy kafolatlar ko'rinishidagi qo'llab-quvvatlash tashqi omillar ichida asosiy rolni o'ynaydi.

Ammo hozirgi kunda ayrim muammolar ham mavjud: ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi, ayrim korxonalarda innovatsion jarayonlarning sustligi, marketing siyosatining yetarlicha samarali emasligi.

### **Xulosa**

Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ❖ Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish.
- ❖ Malakali ishchi kuchi va mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish.

- ❖ Davlat tomonidan iqtisodiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish.
- ❖ Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapitalni jalb etish.
- ❖ Marketing va brend siyosatini kuchaytirish.

Ushbu omillar uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, qurilish korxonalari nafaqat milliy bozorda, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli raqobat qila oladi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press, 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hisobotlari, 2023.
3. Xodjayeva N. “Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholash omillari” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №4, 2022.
4. World Bank. Doing Business in Construction Sector. Washington, 2021.
5. Sattarov N. “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish” Monografiya. “Khwarezm publication”, 2025.

### **QURILISH MATERIALLARI VA SINOV LABORATORIYALAR FAOLIYATINI XALQARO STANDART TALABLARI ORQALI MUVOFIQLASHTIRISH**

**N.Sh. Mo‘minov** - Toshkent arxitektura – qurilish universiteti, “Shahar infraturilmasi” kafedrası professori, t.f.d.

**O.Sh. Eshmurodova** – Toshkent arxitektura – qurilish universiteti,  
“Qurilish materiallari va konstruksiyalari texnologiyasi” kafedrası tayanch  
doktoranti

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada qurilish materiallari haqida ularning xalqaro standart talablariga muvofiqlik darajasi, qurilish materiallariga oid standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish darajasi va ularning sifat va xavfsizlik ko‘rsatgichlarini baholovchi sinov laboratoriyalari ularning kompetentligi, layoqatligini baholash va ularning akkreditatsiya sohasi, qurilish materiallariga oid standartlar va tizimdagi kamchiliklar tahlil qilingan va xulosalar tayyorlangan.